**** GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI AXBOROTNOMASI ****

**** Gumanitar – ijtimoiy fanlar seriyasi, 2025. № 4 ****

UDK 372.81

THE IMPORTANCE OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE EDUCATIONAL PROCESS

TA'LIM JARAYONIDA INTERAKTIV USULLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Abduraimov Sherali No'monjonovich
Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi, 170120. Andijon shahar, Istiqlol ko'chasi, 8 uy.
E-mail: sheraliphd1987@gmail.com

Abstract: This article highlights the fact that the development and fate of the country require a great responsibility in the education and upbringing of the younger generation in schools. The author analyzes the possibilities of modern technologies in improving pedagogical skills, methods and ideas for strengthening practical skills. Also, the importance of innovative approaches in the educational process, the implementation of new reforms in the regulation of normative documents by our state, and proposals for creating conditions for feedback and feedback are put forward.

Keywords: young generation, pedagogical technologies, interactive methods, didactic instruments, education, education, regulatory documents, competence, conditions.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mamlakatning rivojlanishi va taqdiri maktablarda yosh avlodni o'qitish, tarbiyalash katta ma'suliyat talab etiborga olingani yoritilgan. Muallif pedagogik mahoratni takomillashtirishda zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlari, usullari hamda amaliy ko'nikmalarni mustahkamlashga doir fikrlarni tahlil qiladi. Shuningdek, davlatimiz tomonidan normativ hujjatlarni tartibga solishga yangi islohotlarni amalga oshirish, ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilganligi va fikr-mulohazalar hamda mavjud sharoitlarni yaratish uchun takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: yosh avlod, pedagogik texnologiyalar, interaktiv usullar, didaktik vositalar, ta'lim, tarbiya, normativ hujjatlar, kompetensiyalar, sharoit.

Аннотация: В данной статье рассматривается, что развитие и судьба страны требуют большой ответственности в образовании и воспитании молодого поколения в школах. Автор анализирует возможности современных технологий в совершенствовании педагогических навыков, методов и идей укрепления практических умений. Также подчёркивается важность инновационных подходов в образовательном процессе, внедрение новых реформ в регулирование нормативно-правовых документов государством и предлагаются способы создания условий.

Ключевые слова: молодое поколение, педагогические технологии, интерактивные методы, дидактические инструменты, образование, воспитание, нормативные документы, компетенции, условия

Kirish. Vatanimiz taraqqiyoti va taqdiri maktablardagi yosh avlod ta'lim va tarbiyasiga bevosita bog'liq. Shuni hisobga olgan holda, davlatimiz tomonidan bu sohada normativ hujjatlarni tartibga solishga yangi islohotlarni amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ta'lim-tarbiya yo'nalishida qo'shimcha va tuzatishlar kiritildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50, 51, 52-moddalari ta'limga oid normalar bilan to'ldirildi [1]. 2020-yil 23-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi [2]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev "Ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarini faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni birinchi darajali vazifa" deb e'lon qildi [3].

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalaridagi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirgan holda yagona "Tarbiya" fani 1-9-sinflarda –2020/2021 o'quv yilidan, 10 - 11-sinflarda esa – 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi [4].

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga yuz tutishi mumkin. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish, to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklarni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Bu borada tarbiya fani o'qituvchilariga murakkab va zalvorli vazifa yuklatilganligini tarbiya fanidan dars mashg'ulotlari olib borayotgan barcha ustozlar yaxshi anglab olishlari kerak.

Fan o'qituvchilari bu vazifani sidqidildan bajarishi va o'z faoliyatini yanada yuqori sifat bosqichiga olib chiqish pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Bugungi kunda umumta'lim muassasalari o'quvchilarining yoshi va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma'naviyatni singdirish, ularni vatanparvarlik va insoniylik ruhida tarbiyalash hamda umumta'lim maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi asosda tashkil etish juda muhimdir. Shu maqsadda ta'lim-tarbiya jarayoni nafaqat oilada, balki uni maktab ta'limida samarali tashkil qilishga yordam beradigan usullar orqali ham amalga oshirish zarur.

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar

Ushbu maqola tahliliy tadqiqot sifatida ilmiy-nazariy manbaalar tahlilini va qonun hujjatlari asoslarini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada sohaga oid bo'lgan ilmiy tushunchalar, amaldagi normativ hujjatlar asosida tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bilishning umumiy-ilmiy metodlari bo'lgan dialektik metod, tarixiy-qiyosiy tahlil, tizimli tahlil qilish uslublari, shuningdek, umumiy mantiqiy metodlar – induksiya, deduksiya, analiz, sintez va maxsus pedagogik metodlar qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlar va huquq normalarini sharhlashda grammatik tahlil metodidan ham foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning tahlili

Interfaol ta'lim o'quvchi va o'qituvchining birgalikdagi faoliyati bo'lib, o'quvchilarni fikrlashga undaydi. "Interfaol ta'lim dars samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li sifatida e'tirof etilayotgan ta'lim turi va o'qitish shakli sanaladi. Mohiyatiga ko'ra interfaollik ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma, malaka va axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egalikni anglatadi [8]. Interfaol ta'lim o'quvchilarga xulosa qilishga, o'zini tahlil qilishga va eng muhimi, ularda umumiy va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu usullardan "Aqliy hujum", "Blits so'rov", "Klaster", "Case study", "Jeopardylabs", "Tornado", "Kim ekan?", "Ingichka savollar", "3 ta to'g ri va 1 ta noto'g'ri", "Narvon va ilon" va shu kabi ko'plab metodlarni misol keltirishimiz mumkin.

Aynan tarbiya fanida juda ko'plab interfaol usullarni qo'llash mumkin. Biz tarbiya fani 7-sinf darsligidagi "Farzand – oila ko'zgusi " mavzusi misolida ayrim interfaol usullarni foydalanish tartiblarini tushuntirib o'tamiz [6]

Ushbu mavzuda foydalanishga tavsiya etiladigan interfaol usullar: "Hikoya" usuli (videolavha asosida), "Jadval-krossvord", "Chaynvord", "Kim chaqqon?", "Bu kim?", "Maqollar guldastasi", "Hikmatlar sandig'i", "Blits", "Ekspress", "Harflar o'yini", "Olmani pishiring", "Innovatsion test", "Jeopardylabs" va boshqa usullar. Endi mavzuga mos usullarni qo'llash tartiblarini tushuntiramiz. Metod nomi: "Olmani pishiring" Bu usul o'tilgan mavzuni takrorlashda qo'l keladi. Biz taqdim etmooqchi bo'lgan mavzudan avvalgi 21–22-mavzular: Samarali muloqot sirlari [6].

"Olmani pishiring" metodidan foydalanish bosqichlari:

1-bosqich: yashil va qizil olma kartochkalari tayyorlanadi.

2-bosqich: yashil olma kartochkasi orqa tarafiga savollar yoziladi, javoblari esa qizil olma oldi tarafida aks etgan bo'ladi.

3-bosqich:doskaga mavzuga oid maqollar ayta olgan o 'quvchilarni navbat bilan chiqaramiz. Yashil rangdagi savolni olib, javobni qizil kartochkadan izlab, topib, aytadi. To'g'ri javob bergan o'quvchiga yordamchi o'quvchi ball kartochkasini taqdim etadi, qizil kartochka yashil olma ustiga qo'yilib, daraxtga birga yopishtiriladi. Bunda olmani pishirgan - muammoni hal qilgan bo'ladi. Xato javob bersa, qizil olma tasviri joyiga qo'yiladi, chunki bu boshqa savolning javobi bo'ladi yashil olma kartochkasi ajratib pastga yopishtiriladi va pishmay qoladi. Barcha yaxshil olma kartochkalari tugagandan keyin oxirida bu savol ham o'z-o'zidan sherigini-qizil olmani topadi.

Na'munaviy savollar va javobi:

1.Gapirishdan oldin boshqalarning fikr-mulohazasini (tinglang.)
2. Qo'l telefonidan ko'z uzmaslik –(beodoblik sanaladi)
3. Muloqot chog'ida suhbatdoshingizning (ko'zlariga boqing)
4. Maqolni davom ettiring:Tig' jarohati bitar, (til jarohati bitmas).
5. Xulqning eng chiroylisi - (keraksiz so'zlardan tiyilishdir)
6. Teatr va konsertga kelishdan oldin …(o'tkir hidli taomlarni iste'mol qilmang; spektakl boshlanishidan 15– 20 daqiqa oldin kelishga odatlaning.)[6]. Izoh: javoblari qavs ichida berilgan.

Yana bir metodlardan biri "Jeopardylabs" usulini qo'llash jarayoni uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar haqida mulohaza yuritamiz. Ushbu metod uchun darajali savollar tuziladi. Turli qiyinchilik darajasidagi 100, 200, 300 balli savollardan tashkil topadi.

100 balli savollar. Fikrlar muallifi kim?

1. Vatan tarkin bir nafas aylama, Yana ranji g'urbat havas aylama.? Alisher Navoiy
2.Kim o'z yurtini sevmasa, u hech nimani seva olmaydi.?Jorj Bayron, ingliz shoiri.
3.Dangasalik har vaqt insonni xor qilur. Ushbu hikmatli iborani kim aytgan? A. Avloniy.
4.Donishmand va olimlarning xulqlaridan o'rnak olish yaxshi xulqni tiriltiradi, yomonini yo'q qiladi. Bu hikmatli so'z kimga tegishli? A.R.Beruniy

200 balli savollar. Atamalar va ta`riflar

1.Kishilarning ona yurtiga, o'z oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha bu…Vatanparvarlik.
2……- bu insonning aytayotgan har bir so'zi, xatti-harakatlari va ishlari uchun javob berishga qodirligi va tayyorligidir.? Mas'uliyat.
3.Mas'uliyatsizlik – bu…?:insonning o'z so'zlari va xatti-harakatlariga e'tiborsizligi.
4.Ekologiya so'zi qaysi so'zdan olingan?Grek tilidan olingan

200 balli savollar. Sanalar.

1.Butun jahon cho'llanish va qurg'oqchilikka qarshi kurash kuni qachondan nishonlanib kelinmoqda?1994-yil 17-iyun
2.BMT Bosh Assambliyasi tomonidan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya qachon qabul qilingan?1989-yil 20-noyabr
3.BMT Bosh Assambliyasi tomonidan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiya qachon kuchga kirgan?1990-yil sentabrda.
4.O'zbekiston BMT Bosh Assambliyasi tomonidan qabul qilingan "Bola huquqlari to'g'risida"gi Konvensiyaga qachon qo'shilgan?1992-yil 9-dekabr

Ushbu savollarni "Jeopardylabs" dasturiga kiritiish orqali osongina elektron doska orqali taqdim etish mumkin. Hozirgi kunda ayrim umumta'lim muassasalarida moddiy-texnik baza va zarur kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlanmaganini hisobga olgan holda, boshqa shaklda qog 'oz shaklda ham amalda qo'llasa bo'ladi. Buning uchun A3 yoki A4 formatdagi qog'oz, xatjild yoki yopishqoq varaqlardan ham foydalansa bo'ladi. Ya'ni ifoda etmoqchi bo'lgan fikrimiz, interaktiv metodlardan foydalanish uchun hech qanday kompyuter vositalarisiz ham amalga oshirsa bo'ladi.

Xulosa. Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Serquyosh o'lkamizning kelajagi bo'lgan yoshlarning ertangi kuni naqadar quyoshli, iliq bo'lishida esa ularning kugungi kunda olayotyan ta'lim tarbiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman olganda, jamiyat a'zolarining ta'lim tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat esa turg'unlik va inqirozga mahkumdir desak hech ham adashmagan bo'lamiz [5]. Tarbiyaga e'tiborsizlikning oqibati nimalarga olib kelishi haqida o'z vaqtida Abdulla Avloniy kuyunib, "Bugungi kunda jamiyatimizning yuzini qora qiluvchi pastkashlar, yomonlar, beboshlar, o'g'rilar, giyohvandlar va nashavandlar... kecha tarbiyalariga e'tibor berilmagan bolalardir"[7], deb yozib qoldirgan fikrlari nechog'liq haqiqat ekanligi bugungi hayotmizning har kunida o'z isbotini topayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Kelajakda kompyuter ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi bilan interaktiv metodlar yanada ko'proq shakl va usullar orqali ta'limga singdiriladi. Shu tufayli, kundan kundan ta'lim foydalanish interaktiv usullarni amaliyotda keng qo'llashga tayyor bo'lishlari kerak.

Pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash asosida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'quvchilarning funksional va psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart. Pedagoglarning pedagogik dasturiy vositalar asosida imkon qadar ko'proq ma'lumotlarni yoritishga intilishi o'quvchini ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. O'z navbatida ma'lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma'lumotlarni o'zlashtirish sifatiniing pasayishiga, xatoliklar sonining ortib borishiga, o'quvchining o'zini his qilishi va sog'ligiga salbiy ta'sir qiladi. Bu orqali nafaqat ta'lim sifati, balki ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalari ham shakllanadi. Interaktiv usullarni joriy qilish uchun zarur shart-sharoitlar sifatida dars ishlov texnik vositalar mavjudligi, metodik jihatdan: interaktiv usullarni qo'llashga mo'ljallangan dars ishlanmalari, qo'llanmalar, o'quv elektron platformalar, onlayn manbalar bilan ta'minlanganligi, o'qituvchining interaktiv metodlar haqida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent,"O'zbekiston", 2023 yil. 80 b.
2.O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
3.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: "O'zbekiston", 2017. – 592 b.
4.Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
5.Quronov M., Risyukova Y. Tigay O.Usmonova O.Havizov S. va boshqalar. Tarbiya. Darslik. 7-sinf "O'zbekiston" nashriyoti, 188-bet.
6. Usmonova N. R. Xalqro ilmiy-amaliy konferentsiya//"Tarbiya" fanini o'qitish orqali o'quvchilarda axloqiy idealni shakllantirish"// Qo'qon universiteti. 529-bet.
7. Abdulla Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq». Toshkent. 2018. – 96 b.
8. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari pedagog-o'qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste'dod, 2008.- 180 b.

Muallif:
Abduraimov Sherali No'monjonovich - Andijon viloyati Pedagogik mahorat markazi, Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi mudiri.

UDK 372.815.99

PSYCHOLOGICAL RESEARCHES IN THE FIELD OF GENDER EQUALITY

TARIXIY-ETNOGRAFIK MANBALARDA OILA VA TARBIYA MODELINING AKS ETILISHI

ОТРАЖЕНИЕ МОДЕЛИ СЕМЬИ И ВОСПИТАНИЯ В ЭТНОГРАФИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ

Axnazarova Diyora Erkin qizi
Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze
E-mail: diyoraaxnazarova92@gmail.com

Annotation: this article analyzes the relevance of family and upbringing issues in our republic, the measures aimed at their development, state policy, and the practical results achieved. Today, the Republic of Uzbekistan has established a legal framework for strengthening the family, modernizing the upbringing process, and ensuring the spiritual and moral development of youth. In such normative legal documents as the Family Code, the Law "On Education," the Law "On State Youth Policy," as well as the "Uzbekistan–2030" Strategy, special attention is devoted to issues of family and upbringing. This, in turn, contributes to the formation of a healthy social environment, the support of a strong family institution, and the upbringing of a harmoniously developed generation.

Keywords: family, upbringing, gender, polarization, violence, gender relations, social relations, gender representations, gender streotypes, domination, freedom, dependence, feminism.

Annotatsiya: Ushbu maqolada respublikamizda oila va tarbiya masalalarining qanchalik dolzarbligi, ularni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, davlat siyosati hamda amaliyotdagi natijalar tahlil qilinadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida oilani mustahkamlash, tarbiyani modernizatsiya qilish, yoshlarning ma'naviy–axloqiy rivojini ta'minlash bo'yicha huquqiy asoslar yaratilgan. "Oila kodeksi", "Ta'lim to'g'risida" Qonun, "Yoshlar siyosati to'g'risida" Qonun, shuningdek, O'zbekiston 2030 strategiyasi kabi normativ-huquqiy hujjatlarda oila va tarbiya masalalariga keng o'rin berilgan. Bu esa o'z navbatida jamiyatda sog'lom muhitni shakllantirish, mustahkam oilani qo'llab-quvvatlash hamda barkamol avlodni tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: oila, tarbiya, gender, qutblanish, zo`ravonlik, gender munosabatlar, ijtimoiy munosabatlar, gender vakolatxonalari, gender streotiplar, hukmronlik, erkinlik, qaramlik, feminizm.

Аннотация: В данной статье анализируются актуальность вопросов семьи и воспитания в нашей республике, меры, направленные на их развитие, государственная политика и достигнутые практические результаты. На сегодняшний день в Республике Узбекистан созданы правовые основы для укрепления семьи, модернизации воспитания и обеспечения духовно-нравственного развития молодёжи. В таких нормативно-правовых документах, как Семейный кодекс, Закон «Об образовании», Закон «О государственной молодёжной политике», а также Стратегия «Узбекистан-2030», вопросам семьи и воспитания уделено особое внимание. Это, в свою очередь, способствует формированию здоровой общественной среды, поддержке крепкой семьи и воспитанию гармонично развитого поколения.

Ключевые слова: семья, воспитание, гендер, поляризация, насилие, гендерные отношения, социальные связи, гендерные репрезентации, гендерные стереотипы, доминирование, свобода, зависимость, феминизм.

Kirish. Oila – jamiyatning eng qadimiy, eng barqaror va eng muhim ijtimoiy institutlaridan biridir. Insonning xarakteri, dunyoqarashi, ma'naviyati va kelajak hayotiga munosabati aynan oilada shakllanadi. Shu sababli har bir davlatning taraqqiyoti va kelajagi avvalo oilaning mustahkamligi va undagi tarbiya jarayonlarining samaradorligiga bog'liq hisoblanadi. O'zbekiston